

O'RTA OSIYONING QADIMGI AHOLISI**Egamberdiyev Asilbek To'liq o'g'li***Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar va san'at
fakulteti Tarix yo'nalishi 1- bosqich talabasi*

Annotasiya: Ushbu maqolada O'rta Osiyo shaharlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi hamda ilk shaharsozlikmadaniyatining shakllanishi davri tarixi O'rta Osiyodagi dastlabki shahar markazlari va o'troqaholisining rayonlashuvi haqida xulosa qilib beradi. Olimlar tomonidan shaharlarning o'rganilishi haqida keltirib o'tilgan.

Annotation: In this article, the history of the emergence and development of the cities of Central Asia and the formation of the first urban planning culture summarizes the regionalization of the first urban centers and settlements in Central Asia. Cited by scientists about the study of cities.

Аннотация: В данной статье история возникновения и развития городов Средней Азии и формирования первой градостроительной культуры обобщает районирование первых городских центров и поселений Средней Азии. Цитируется учеными об изучении городов.

Kalit so'zlar: A.M.Belenitskiy, Markaziy Osiyo, Panjikent, I.B.Benitovich, urbanizatsiya, O.G.Bolshakov, O'zbekiston, Arki a'lo, Shahrison, Sopollitepa, Sherobod, O'lanbuloq, Mesopotamiya, Jarqo'ton

Ключевые слова: А.М.Беленицкий, Средняя Азия, Пенджикент, И.Б. Бенитович, урбанизация, О.Г.Большаков, Узбекистан, Арки а'ла, Шахристон, Сополлитепа, Шерабад, Оланбулок, Месопотамия, Жаркотон

Keywords: A.M.Belenitsky, Central Asia, Panjikent, I.B.Benitovich, urbanization, O.G.Bolshakov, Uzbekistan, Arki a'la, Shahrison, Sopollitepa, Sherabad, Olanbulok, Mesopotamia, Jarkoton.

Kirish

O'rta Osiyoning qadimgi aholisi. Yunon tarixchilarini ma'lumotlariga qaraganda Yevrosiyodan Oltoygacha bo'lgan xududda yashovchi barcha ko'chmanchi qabilalar umumiy nom bilan skiflar deb ataladi. Maxalliy qabilalar ichida eng yirigi va yozma manbalarda ko'ptilgaolinuvchilari massegetlar va saklar edi. Ahmoniy mikxat yozuvlarida skiflar tarkibiga kiruvchi 3tasak guruxi eslatiladi: Saka-xaumavarana - tadqiqotchilar bu guruhni Gerodotning «skif- amorglari», Ktesey Knidskiyning ishx Omarg skiflar bilan

aynan bir deb xisoblaydilar. Saka-tigraxauda - «o'tkir uchli qopqoq kiyuvchi saklar» deb ataydi. «Saka-tiay-tara- darayyo» - daryo ortidagi saklar. Qabilalarni joylashuvi anchagina munozarali mavzu.

Ba'zi tadqiqotchilar saka-xaumavaranalar Murg'obda yashagan desalar, ba'zi birlari Pomirdayoki ushman Pomirda va Farg'onada yashagan deyдилar. S.P. Tolstovni fikricha, saka-xaumavaranalar Qoraqum, Xorazm vohasi, Sirdaryoni quyi oqimida joylashgan Xorazm - masseget xarbiy ittifoqini asosini tashkil etgan. Saka-tigraxaudalar esa ulardan sharqda, aniqrog'i Sirdaryoni o'rtaoqimi, Toshkent viloyati, janubiy Qozog'istonda joylashishi, Saka-tiay-tara-darayyolar MarkaziyOsiyoning Janubidagi tog' va cho'l vohalarida Amudaryoni o'ng qirg'og'ida sug'diylar bilanqo'shni bo'lib yashaganlar. Massegetlar haqida ham turli fikrlar mavjud. Massegetlar mil.avv.VII-IVasrdabir necha sak qabilalarni birlashtirib turgan yirik qabilalar ittifoqi edi. O'rta Osiyoning qadimgi aholisi haqida yunon-rim mualliflari Qadimgi dunyo tarixida Sharq bilan G'arbni bir-birlari bilan bog'lab turgan karvan yo'llari (ular tarixda “Lojuvar yo'l”, “Shoh yo'li”, “Buyuk ipak yo'li”, “Nefrit yo'li”va boshqalar) mamlakatlar iqtisodiy hayotida katta o'rin tutgan. Ana shu yo'llarning muayyan qismini nazorat qilish (chunki undan katta daromat kelardi) va nazorat hududlarini kengaytirish maqsadida turli bahonalar vasabablar qidirilib, asosiy maqsad yo'lida mamlakatlar aro urushlar bo'lib turgan. Ana shundayjangu-jadallardan biri miloddan avvalgi VI-IV asrlarda qadimgi forslar bilan yunonlar o'rtasidaolibborilgan urushlar edi.

Qadimgi dunyoning bu ikki buyuk imperiyalari (Ahamoniylar va Yunoniston)o'rtasida boshlangan urushlarda O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari ham qatnashganlar. Shumunosabat bilan yunon muarrixlari O'rta Osiyo xalqlari haqida tarix uchun qimmatli ma'lumotlar qoldirganlar. Ayniqsa, qadimgi Yunonistonning yuksak ilmiy va madaniyat markazlaridan bo'lgan Kichik Osiyo shaharlari, ulardan chiqqan olimu-fuzalolar: tarixchilar, geograflar va tarix bilanqiziqqan turli soha yilnomachilari Eron va Turonzaminning qadimgi xalqlari haqida ko'p qiziqarli ma'lumotlar beradilar. Manbaalardan ma'lum bo'lishicha qadimgi yunonlar tarixi IoniyaningMilet shahrida shakllanib, tarix so'zi ioniya tilida “tadqiqot”, “izlanish” ma'nosini beradi. 1.Eshov B. "Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarix"i, Toshkent, 2006 – yil. 6 – 21, 61 –71 b. Milet tarix maktabining miloddan avvalgi VI asrda o'tgan vakillaridan biri Gekatey bo'lib, uo'zining “Yer qurrasining tasviri” asarini Osiyoga bag'ishlangan qismida horasmiylar haqidabirinchi bor ma'lumotlar bergan. Shuningdek, Gekatey ma'lumotlariga asoslanib, xorasmiylar vaularning Amudaryo kuyi havzalariga ko'chib borgan avlodlari haqidagi ilk xabarlarini Kichik Osiyolik “Tarixning otasi” (Siseron bahosi) deb atalgan Gerodot asari “Tarix”da o'qiymiz. Bu haqda Afiney, Stepan va boshqalar ham yozishgan. Masalan, Afiney yozadi: “Miletlik GekateyOsiyoni tasvirlab

shunday deydi: “... parflarning sharqida tekisliklar va tog'larni ishg'ol qilganxorasmiylar yashaydi.”⁴⁸

U tog'larda yovvoyi daraxtlar, tol, yulg'un, tikanlik kinara o'sadi”. Stepanesa “Xorasmiya: parflarning sharqidagi shahar. Gekatey Osiyoni tasvirlab, shunday deydi: “Ularning shahri Xorasmiya”. Gerodot (miloddan avvalgi 484-425 yillar oraliqida yashagan) Kichik Osiyo shaharlari, Vavilon, Finikiya, Kipr oroli, Makedoniya, Markaziy Gresiya (Afina), Qora dengiz sohillari, Egeydengizi orollari, umuman qadimgi dunyo mamlakatlari va shaharlarining ko'pchilligida bo'lgan. U o'zining 10 yillik sayoxati davomida (mil.avv.455-445) Liviya, Misr, Ossuriya, Bobil, Ekbatandabo'lib, to'plagan barcha materiallari asosida 9 jildli “Tarix” asarini yozgan. Gerodotning O'rtaOsiyo xalqlari tarixi haqidagi ma'lumotlari “Tarix” asarining I, III, VII, IX jildlarida o'z aksini topgan. U o'zining “Tarix” asarida butun etiborini Afinaga qaratgan, ko'p vokea va faktlar Afina siyosati nuqtai nazaridan yoritilgan.

Asarda Yevropa va Osiyo, Yunoniston va Eron o'rtasidagi urushlar voqeasi yoritilgan. Asarda tarixiy voqea va hikoyalar ketma-ket, afsona, mif, naql, rivoyat, ertak, masal va ularning asosiy mazmuni orasiga kiritilgan qistirma hikoyalar tarzida beriladi (Kserksva uning ukasi Masist, Tomiris va Kirning halokati haqidagi hikoya va boshqalar). Gerodotning “Tarix” asarida bizni qiziqtirgan masala sak (skif), massaget, xorasmiy va Xorazm, issedon va day, farf va margush, sug'd va parikan kabi O'rta Osiyoda qadimda yashagano'troqva ko'chmanchi xalqlar haqidagi ma'lumotlardir. U Kirning massagetlar ustiga yurishi va halokati sabablarini yoritadi. Skif xalqlari haqidagi ma'lumotlar “Tarix” kitobining 4-jildida beriladi. USharq xalqlarini mensimay, “varvar” deb qaramaydi. Uning uchun Sharq insoniyat madaniyati, donishmandlikning o'chogi, uning fikricha geometriya, oftob soati, qonuniyat, qurollar, yozuvmadaniyati kabilar Sharqdan kelgan.”⁴⁹

O'rta Osiyo xalqlari Yunon-Eron urushlarining ishtirokchisi sifatida yunon mualliflarini qiziqtirdi va asarlarida ular haqida qimmatli ma'lumotlar beradilar. Masalan, Gerodot “Tarix” kitobidaBaktriya, Baqtra va bohtariylar haqida 13 marta, sug'dlarni 2 marta, xorazmliklarni 3 marta, saklarni 11 marta, massagetlarni 19 marta tilga olib, ularning moddiy madaniyati, urf-odatlarini, dini va tarixi haqida hikoya qilgan. 2.Eshov B. Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi, Toshkent, Fan va Texnologiya, 2008 –yil. 17–26 b. 27 – 37 b Gerodotning qadimgi O'rta Osiyo to'g'risidagi asosiy fikrlari forslarning sak-massagetlargaqarshi yurishlari, Kir II va To'maris o'rtasidagi siyosiy munosabatlar, ahamoniy harbiy qo'shinlari safida ajdodlarimiz jangchilarining faol ishtiroki, ularning yaroq-aslohalari, yo'lboshchilari, janglarda ularning ko'rsatgan jasoratlari, ajdodlarimizning ahamoniylar asoratiga tushibkattaxiroj to'lashlari, Akes (Xilmend) daryosi suvlaridan

⁴⁸ Asqarov A. "Eng qadimiy shahar",Toshkent, Ma"naviyat, 2001 – yil. 3 –7

⁴⁹ Asqarov A. "Eng qadimiy shahar",Toshkent, Ma"naviyat, 2001 – yil. 3 –7

foydalanish masalasida tug'ilgan majoralar vaboshqalar haqida boradi. Gerodot hech qachon O'rta Osiyo viloyatlari va shaharlarida bo'lmagan. Shuning uchun uning O'rta Osiyoni tarixiy geografiyasi haqidagi ma'lumotlari ilmiy izlanishlarni talab qiladi.⁵⁰ Masalan, Gerodot massagetlarning hududiy joylashuvi haqida bunday yozadi: "Ular sharqda, quyosh chiqishi yo'nalishida, Araks daryosining narigi yog'ida joylashganlar. Araksdaryosi Matiyona tog'laridan boshlab oqadi". Tadqiqotlardan ma'lumki, Araks-bu Amudaryo. Matiyona tog'lari – Pomir yoki Hindiqush tog'laridir. Chunki, Gerodotning yozishicha, Matiyonatog'larida Hind daryosi boshlanadi. Gerodot "Tarix" asarining III – kitobida (117-bob) Akes suvi majorasida Skilak va Gekateydanolgan ma'lumotlariga asoslanib kuyidagilarni habar qiladi: "Osiyoda har tarafidan tog' bilanqurshalgan bir vodiy bor, tog'da beshta dara bor. Bir vaqtlar bu yerlar xorasmiylarga qaraganvaxorasmiy girkan, parfyan, sarang va famaneylarga chegaradosh bo'lgan. Ana shu vodiy atrofida tog'lardan Akes deb ataluvchi katta daryo oqib tushgan. Shu daryo besh irmoqqabo'linib, yuqoridagi xalqlar yerlarini sug'organ... Ammo forslarga qaram bo'lgandan keyinbuxalqlar mana qanday ahvolga tushdilar. Shoh tog' daralarini berkittirib, to'g'on darvozalar qurdiradi.

Vodiyda suniy ko'l hosil bo'ladi. Ilgari shu suvlardan foydalanib kelgan qabilalar endi bu imqoniyatlardan mahrum bo'lib, dahshatli holatga tushadilar. Qishda, albatta, boshqajoylardagidek, ilohiyot ularga ham namgarchilik yubardi, yozda esa ular ekadigan tariq vakunjut doim suvsiz qoladi. Mutlaqo suvsiz qolganda ular xotin-bola chaqalari bilan Parsuaga boradilar, shoh saroyi qarshisiga turib olib baland ovozlar bilan achinarli holda faryod qiladilar. Ulardagi suv tankisligini ko'rgan shoh arzgo'ylar tomonidagi to'g'on darvozalarini ochishni buyuradi. Yerlar sug'orilgach, yana to'g'onni berkitishni buyuradi, endi boshqa suvga tashna qabila yerlarigasuvochadilar. Biroq, men bildimki, to'g'on darvozasini ochish uchun shox katta pul (bojlardantashqari) olar ekan.(poraxo'rlikka ishora) Ishlar ana shunday» Gerodot asarida keltirilganbuepizoddan Ahamoniylar hukmronligi ostida ajdodlarimiz, ayniqsa, oddiy mehnatkash jamoalar ahvoli qanchalik og'ir bo'lganligini guvohi bo'lamiz. Gerodot keltirgan mana shu epizoddan kelib chiqib, Tarn, Alxaym, Xenning, Piyankov, G'ofurov va boshqalar xorazmliklar dastlab Marv-Xirot atrofida yashaganlar, keyinchalik Ahamoniylar siquvi natijasida hozirgi joylariga ko'chib kelgan bo'lsalar kerak, deb fikrni yuritganlar.

Tadqiqotchilar, ayniqsa V.A.Livshis qadimgi Xorazm tili Avesto tiliga yaqin, deganxulosaga keladi. 3.Sagdullayev A.S. O'zbekiston tarixi, T., 2019. 76 – 93 b. Shu fikrdagi olimlar (V.V.Struve, I.M.Dyakonov, V.G.Lukonin, M.Meri Boys, S.P.Tolstov, M.Ishakov va boshqalar) Avestoning eng ko'xna qismlari, ya'ni "Gota" gimnlari

⁵⁰ Eshov B." Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi"Toshkent, Fan va Texnologiya, 2008 –yil. 17–26 b. 27 – 37 b Karimov, X. (2024).

Xorazmdayaratilgan, deydilar. Extimol, Gota gimnlari Xoroevada (Xorasmiyada) yaratilib, xorasmiylar uni o'zlari bilan (miloddan avvalgi VI asrning oxirgi choragida) Amudaryo quyi havzalariga olibkelgan, deyish to'g'riroqdir. Bu variantda ham Avestoning "Gotalari" xorazmlilar jamoasidayaratilganligini tasdiqlaydi.⁵¹

Gerodot Baqtriyani ko'p tilga oladi. Kir II ning harbiy yurishlariga "Bobil, Baqtriya xalqi, saklar va misrliklar to'siq bo'lib turganlar" deb yozadi Gerodot[9]. Gerodot ma'lumotlarida berilgan "Baqtriya xalqi" tushunchasi ma'lum bir etnik birlikni anglatadi. Xalqma'nosini beruvchi "etnos" so'zi Gerodot "Tarix"ida ko'p uchraydi. Gerodotning yozishicha, Doro I Ahamoniylar davlatini 20 ta satrapliklarga bo'lib boshqargan. Shundan 3 tasi O'rta Osiyo hududlari bilan bog'lik joylardir. Masalan, "Tarix" kitobida kuyidagilarni o'qiymiz: Baqtriyaliklardan egllargacha bo'lgan xalqlar 300 talant (bir talant 33,655 kg kumushga teng- A.A.) soliq to'laganlar.⁵² Bu – o'n ikkinchi o'lka" "Saklar va kaspiylar 250 talant to'laganlar. Bu o'n beshinchi o'lka. Parfyanlar, xoracmiylar, sug'dlar va ariylar 300 talant to'laganlar. Bu o'n oltinchi o'lka". Gerodot ajdodlarimizning etnik tarkibi, ularni kiyim-boshi, harbiy qurollari haqida ham ma'lumotlar beradi, ya'ni "Baqtriyaliklarning boshlariga kiyganqalpoqlari midiyaliklarnikiga juda o'xshagan, ular trostnikdan yasalgan o'q va kalta nayzalar bilan qurollanganlar.

Saklar (skif qabilasi) uzun cho'qqili qalpoqlar kiygan. Ular keng sharvar kiyganlar, sak kamoni va xanjarlari bilan qurollanganlar. Bulardan tashqari ularda yana sagarislar, ya'ni ikki tig'li jangavor oyboltalar bo'lgan. Ushbu qabila (aynan skif qabilasi) amirgiya saklari deb nomlangan. Forslar skiflarning hammasini saklar deb ataydilar.

Baqtriyaliklar va saklarningsardori Gistasp – Doro va Kirning qizi Atossaning o'g'li bo'lgan". "Parfyanlar, xorasmiylar, sug'dlar, gandariylar va dadiklar baqtriyaliklarning qurollariga o'xshagan yarog'-asloxalar bilan harbiy yurishga kirganlar. Ularning yo'lboshchilari: parfyan va xorasmiylarda Farnakning o'g'li Artabaz; sug'dlarniki-Artey o'g'li Azan bo'lgan". "Baqtriya chavondoqlarining qurollari piyoda askarlar qurollariga o'xshagan, xuddi kaspiylarnikini o'zi edi.... Kaspiylar va parikaniylar ham xuddi piyoda askarlardek qurollangan edilar. Arablar ham xuddi piyoda askarlardek qurollangan edilar, ammo ularning barchasi tuyalarda shunday tez chopar edilarki, ular tez yurishda sipohiylardan qolishmas edilar". Gerodot O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari haqidagi hikoyalarini aynan massagetlardash boshlaydi: "Bu xalqlarni o'ziga tobe qilgandan so'ng,- deydi Gerodot- Kir massagatlarni istilo qilish maqsadini o'z oldiga qo'ygan. Bu massagetlar, aytishlaricha, jasur

⁵¹ Jo'rayev N. va boshqalar... "O'zbekiston tarixi" T., 1998. 6. Eshov B. "Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi", Toshkent, 2006 – yil.

⁵² Eshov B. "Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi" Toshkent, Fan va Texnologiya, 2008 – yil. 17–26 b. 27 – 37 b Karimov, X. (2024).

va behisob qabiladir. Ular sharqda, quyosh chiqishi yo'nalishida, Araks daryosining narigi yog'ida issedonlarga ro'parabo'lib joylashganlar. Ba'zilar ularni skif qabilasi, deb hisoblaydilar.” “Ba'zilarining aytishigako'ra, Araks Istradan katta; boshqalar esa, aksincha, bu daryoni kichik deb hisoblaydilar.⁵³

Araks daryosida orollar ko'p...Bu orollarda yashovchi odamlar yozda mevali daraxt hosilini yig'ib, qishga quritadilar....Massagetlar gulxan atrofiga yig'ilishib, pishgan mevalarni olovga otadilar. Ulardan chiqqan hiddan, ellinlar vino ichib mast bo'lganlaridek, kayf qiladilar. Olovga qanchako'pmeva tashlansa, undan chiqadigan hid ko'payib, badmast bo'ladilar. So'ng o'rinlaridan turib, o'ynashadilar, ashula aytishadilar. Bu qabilalarning turmush tarzi haqida shunday hikoya qiladilar. Araksning bir o'zani kaspiy dengiziga kuyiladi. Kaspiy dengizi boshqa suv omborlari bilan bog'lanmagan dengizdir. “Massagettlarning kiyim-kechaklari skiflarnikiga o'xshaydi va turmushtarzi ham o'xshash. Ular otda va piyoda yuradilar. Odatda, ularning qurollari kamon, nayzavajangavor oyboltalardan iborat. Ularning hamma narsalari oltin va misdan ishlangan. Ammo, barcha sanchiq, o'q va harbiy boltalarning metall qismi misdan ishlangan (bronzadan demoqchi-A.A.), bosh kiyimlari, bel kamari oltin bilan naqshlangan. Ular otlarining egar-jabduqlarini hamust-boshlari kabi oltin bilan bezatadilar.

Temir va kumushdan yasalgan buyumlar ularningro'zg'orida ishlatilmaydi, chunki bu metallar massagettlarning yerlarida umuman uchramaydi. Ammo, ularda oltin va mis juda ko'p”. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Jarqo'tonda 1973 yildan to hozirgacha arxeologik qazishmaishlari davom etmoqda. Shu davr ichida maydoni 100 gektardan kam bo'lmagan bu qadimgi shahar ikki qismdan - " arki a'lo " va " shariston " dan iborat ekanligi, uning " shahrison " qismidan bir nechaturar - joy massvilari, turli tarmoqli shahar hunarmandchiligining ob'ektlari, otashparastlar ibodatxonasi, ark maydonidan esa shahar hokimining mahobatli saroy kompleksi, metall eritishpechlari va boshqalar topib o'rganildi.

Xulosa:

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, O'rta Osiyo hududida odamlarning dastlabki manzilgohlari paleolitdan boshlangan. Selungur, Teshiktosh va Obi-Rahmat g'orlaridan topilgan qadimgi odamlar qoldiqlari va mehnat qurollari bu hududda ibtidoiy jamoa tuzumi davridan boshlab aholi yashab kelganligini tasdiqlaydi. Neolit davrida (miloddan avvalgi 12-5 ming yilliklar) dehqonchilik va chorvachilik xo'jaligi shakllanib, bu mintaqada o'troq hayot tarzining rivojlanishiga asos bo'lgan. Mintaqa aholisining etnik tarkibi uzoq tarixiy jarayon davomida shakllanib borgan. Eneolit va bronza davrlarida (miloddan avvalgi 4-2

⁵³ Belenitskiy A.M., I.B. Bentovich, O.G. Bolshakov", O'rta Osiyoning o'rta asr shahri" SSSRFanlar akademiyasi Arxeologiya instituti, Nashriyot: " Nauka", Leningrad, 1973 – yil. 3-43 b.

ming yilliklar) Janubiy Turkmanistondagi Anau, Namazgoh madaniyatlari, keyinchalik Baqtriya-Marg'iyona arxeologik majmuasi (BMAC) madaniyati vakillari mintaqaning asosiy aholisini tashkil etgan. Temir davrida (miloddan avvalgi 1-ming yillik) mintaqada ko'chmanchi chorvador va o'troq dehqon aholining o'zaro aloqalari kuchayib, bu jarayon mahalliy etnoslarning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Qadimgi O'rta Osiyo jamiyatining ijtimoiy tuzilishi murakkab ierarxik tizimga ega bo'lgan. Yuqori tabaqani hukmdorlar, saroy a'yonlari, ruhoniylar va harbiy zodagonlar tashkil etgan. O'rta tabaqaga savdogarlar, hunarmandlar va erkin dehqonlar kirgan. Quyi tabaqani esa qullar, kambag'al dehqonlar va chorvadorlar tashkil etgan. Bu ijtimoiy tuzilish mintaqadagi davlat tizimlarining shakllanishi va rivojlanishiga asos bo'lgan. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, qadimgi aholi xo'jalik faoliyatining asosini dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik tashkil etgan. Sun'iy sug'orish tizimlari, metallga ishlov berish texnologiyalari, kulolchilik va to'qimachilik sohalarida sezilarli yutuqlarga erishilgan. Bu yutuqlar mintaqada rivojlangan sivilizatsiyaning shakllanishiga olib kelgan.

Qadimgi O'rta Osiyo aholisining madaniy merosi g'oyat boy va rang-barang bo'lgan. Zardushtiylilik, buddaviylilik va mahalliy kultlar diniy hayotning asosini tashkil etgan. Me'morchilik, haykaltaroshlik, devoriy rasmlar va amaliy san'at yuksak darajada rivojlangan. Oromiy, yunon, sug'd va xorazm yozuvlari madaniy aloqalarning kengayishiga xizmat qilgan.

O'rta Osiyoning qadimgi aholisi mintaqada yuksak sivilizatsiyani yaratgan bo'lib, ularning madaniy merosi jahon tarixida muhim o'rin tutadi. Tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, bu hudud turli xalqlar va madaniyatlarning uchrashgan joyi bo'lib, bu yerda shakllangan etnik va madaniy jarayonlar mintaqaning keyingi tarixiy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Qadimgi aholining xo'jalik faoliyati, ijtimoiy tuzilishi va madaniy hayoti haqidagi ma'lumotlar zamonaviy O'rta Osiyo xalqlari tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, O'rta Osiyoning qadimgi aholisi tarixi hali to'liq o'rganilmagan bo'lib, bu yo'nalishda yangi tadqiqotlar olib borish zarur. Bu esa o'z navbatida mintaq tarixining eng qadimgi davrlarini yanada chuqurroq o'rganish va tushunish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asqarov A. "Eng qadimiy shahar", Toshkent, Maʼnaviyat, 2001 – yil. 3 –7
2. Belenitskiy A.M., I.B. Bentovich, O.G. Bolshakov", Oʻrta Osiyoning oʻrta asr shahri" SSSR Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti, Nashriyot: “ Nauka”, Leningrad, 1973 – yil. 3-43 b.
3. Kasoʻmov A., Vaskin I." Osnovnoʻye napravleniya vneshney politiki Respubliki Uzbekistan". T., 1994.
4. Sagdullayev A.S." Oʻzbekiston tarixi", T., 2019. 76 – 93 b.
5. Joʻrayev N. va boshqalar..." Oʻzbekiston tarixi" T., 1998. 6. Eshov B. "Qadimgi Oʻrta Osiyo shaharlari tarixi", Toshkent, 2006 – yil. 6 – 21, 61 –71 b.
7. Eshov B." Qadimgi Oʻrta Osiyo shaharlari tarixi" Toshkent, Fan va Texnologiya, 2008 –yil. 17–26 b. 27 – 37 b Karimov, X. (2024).
8. HISTORY AND CULTURAL LIFE OF THE KYRGYZ NATIONS INHABITANT THE FERGHANA VALLEY (1991-2023, ON THE EXAMPLE OF ANDIJAN, NAMANGAN, FERGANA REGIONS). Interpretation and